


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi

60711400-*Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo‘jaligida)* bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent



ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

- Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022 yil «7» 07 dagi 3 - sonli yig‘ilishida ma‘qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022 yil «19» 07 dagi 233 -sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi.

Mazkur malaka talablari “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T.r.	bet
1. <i>60711400-Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi</i>	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. <i>60711400-Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi...</i>	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2. <i>60711400-Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi.....</i>	4
1.2.1. <i>60711400-Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari</i>	4
1.2.2. <i>60711400-Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlarining obyektlari</i>	5
1.2.3. <i>60711400-Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	5
1.2.4. <i>60711400-Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy vazifalari</i>	5
2. <i>60711400-Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....</i>	6
2.1. Umumiy kompetensiyalar	6
2.2. Kasbiy kompetensiyalar	7
Bibliografik ma'lumotlar	8
Kelishuv varag'i.....	9

1. 60711400-*Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida)* bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60711400-*Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. O'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60711400-*Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi

Malaka talabi *60711400-*Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma (bo'limi) boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60711400-*Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi:

1.2.1. 60711400-*Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60711400-*Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida)* – “Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish masalalariga avtomatik boshqarishni qollash texnologik jarayonlarni avtomatik boshqarish tizimlari yordamida amalga oshiriladi. Ularda texnologik jarayon va texnologik obyekt holati zamonaviy EHMLardan foydalanilgan holda tahlil qilinadi. Shulardan ko'rinadiki, avtomatik boshqarish insonlar tomonidan amalga oshiriladi, boshqaruv tizimining texnik vositalari, shu jumladan, EHMLar boshqaruv yechimlarini ishlab chiqish va qo'llashning murakkab jarayonida inson imkoniyatlarini ko'p marta oshiruvchi qudratli vosita sanaladi. EHMLar asosidagi zamonaviy avtomatik boshqaruv tizimi hozirgi davr ishlab chiqarish amaliyotida keng qo'llanilmoqda. xizmati ko'rsatishni amalga oshirish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60711400-*Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining obyektlari:*

- texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish sohasidagi davlat va xususiy tashkilot, korxonalar va muassasalar hamda mashinasozlik zavodlari;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi avtomatlashtirish jarayonlari;
- qishloq xo'jaligi mashinalari, texnikalari, vositalari va asbob-uskunalar;
- agrosanoat majmui korxonalarini va tashkilotlarining boshqaruv tizimlari.

*60711400-*Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari* pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.*

1.2.3. 60711400-*Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari*

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- axborot-tahliliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tadbirkorlik.

1.2.4. 60711400-*Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari*

*60711400-*Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim yo'nalishi bo'yicha* Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:*

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;
- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- birlamchi ishlab chiqaruvchi bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqarishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqarish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investisiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsion loyihalarni ishlab chiqish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

- loyihalar samaradorligini baholash;

- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishga qatnashish;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish;

- tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tadbiq etish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. 60711400-*Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar*

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;
- korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish obyektlari uchun texnikalar tanlash, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirish jarayonlarini avtomatlashtirishni amalga oshira olishlari va ular asosida ishlab chiqarish loyihalarini ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish agrotexnikasi va zootexniya talablarini qanoatlantiruvchi energiya-resurstejamkor tejamkor, samarali mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish texnologiyalarni joriy etishni bilishi;
- qishloq ishlab chiqarish subyektlari uchun zarur texnika vositalarini tanlashni bilishi, ulardan samarali foydalanishni tashkil etishi va boshqarishi;
- mahalliy sharoitga qarab ish turlarini o'z agrotexnik muddatlarida sifatli amalga oshirishni ta'minlaydigan texnika vositalari va jihozlarini tanlash hamda ularning texnik servisi va ekspluatatsiyasini tashkil etish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ish sifati va unumini oshirish hamda energiya-resurstejamkorlikka erishishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil qilish;
- qishloq xo'jaligi obyektlarida texnikaviy ta'minot tizimini texnik iqtisodiy tahlil qilishni, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlashi, istiqbolli rejalar tuzishni bilish;
- uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish (o'quv personal), umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-xunar ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini o'tish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni egallash va tadbir etishni bilish;
- elektron qurilmalar elektr sxemalarini ishlab chiqishda yarim o'tkazgich priborlardan foydalanish, elektronika, maishiy xizmat va ishlab chiqarish elektr uskunalari montaji va sozlash, avtomatika vositalarini hisoblash va tanlash, montaj, sozlash va ekspluatatsiyalash, elektr yuritmalar sistemasini tanlash, elektr motorlar quvvatini tanlash, elektr yuritmalarni boshqarish sxemalarini ishlab chiqish, rostdash va kommutatsiyalash apparatlarini tanlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

Tayanch so'zlar:


kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, rostlagich, rostlash qurilmasi, boshqarish obyekti, boshqarish tizimi, boshqaruv ta'siri, g'alayon, chiqish koordinatalari, boshqarish algoritmi, avtomatik boshqarish, funksional sxema, strukturaviy sxema, printsiptial sxema, ochiq boshqarish printsipti, g'alayon bo'yicha boshqarish printsipti,teskari aloqa yoki og'ish printsipti, avtomatik boshqarish tizimlarining sinflanishi, chiziqli tizim. Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat turi, kredit, modul, bakalavriat, o'quv reja, fan dasturi, o'quv jarayoni, malakaviy amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, baholash, ichki nazorat, yakuniy davlat nazorati, davlat-jamoatchilik nazorati, tashqi nazorat, moddiy-texnik baza, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ta'lim sifati nazorati, profil, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQLDI:



**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti**

Rektor  **X.B. Yunusov**


2022 yil « _____ » _____

M.O'.

KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq
etish markazi**




Direktor  **Sh. Yakubov**

2022 yil « _____ » _____

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi
Veterinariya va chorvachilikni
rivojlantirish davlat qo'mitasi**




Rais  **B.T. Norqobilov**

2022 yil « _____ » _____

M.O'.

**Toshkent davlat agrar
universiteti**

1-prorektor  **S.Y. Islomov**



2022 yil « _____ » _____

M.O'.

**Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash
ilmiy-tadqiqot instituti**

Direktor  **D.R. Norchayev**

2022 yil « _____ » _____

M.O'.

